

1

Bugun u ishdan ketdi. Ishdan-a?!.. Ha-ha, ishdan ketdi deyaqman men sizga... Baqirganim yo'q. Men bor yo'g'i uning ishdan ketganidan xabar berayapman. Shu tobdagi ko'ngil holim uning ishdan ketganligi haqidagi xabar mazmuniga mos. To'g'rirog'i, xabar meni o'z sajiyasiga ko'ra sozlab oldi go'yo. Shuning uchun ham sizga baqirayotgandek tuyulgan bo'lishim mumkin, aslida unday emas. Axir, bir kun siz ham, men ham, xullas, hammamiz ishdan ketishimiz mumkin-ku... (o'shanda kerak bo'ppolar balki bu gaplar). "Qayoqqa?" - deysizmi?... Bilmadim. Hamma gap shunda bo'lsa kerak. Darhaqiqat, ishdan ketgandan keyin odam qayoqqa borar ekan?.. Ishlab turib o'lib qolsa, uning qayon borishi ma'lum: chin dunyoga... Lekin o'lmasdan burun ishdan ketsa-chi? Keyin nima bo'ladi. U ishdan qaerga boradi?..

2

Shunday qilib, u ishdan ketdi. Qirq yil ishlagan, qirq yillik umri o'tgan joydan ketdi... U qanaqa joy, ishning nomi nima, kimlar bilan ishlagan edi, deganga o'xshash yuzlab savollar bu o'rinda ahamiyatli emasdek. Nima uchun ishdan ketdi, o'z ixtiyori bilanmi yoki ixtiyoriga qaramay ketishga majbur qilishdimi, keksayib, ishga yaramay qolgani uchundir, balki o'ylaymanki, bularning javobi ham juda muhim ko'rinmaydi. Chunki, hamma qachondir qandaydir sababga ko'ra ishga kiradi va vaqti soati yetib undan ketadi. Xuddi tug'ilish va o'lishdek gap bu. Pistonchi o'libdi, deyishsa, darrov "nimaga?" deb so'raymiz. "Falon-falon" sababga ko'ra deyishgandan so'ng, "agar o'sha sabab bo'lmaganda tirik yurardi" deya hamdardlik bilan bilag'onlik qilamiz. To'g'ri, bo'lishi mumkin. Masalan, agar u anov kuni haqiqatan ham o'sha savil mashinaga o'tirmaganida, avtohalokat sodir bo'lmasligi mumkin edi. Biroq u baribir qachondir o'lar edi. Qsha kuni bo'lmasa ertasiga boshqa sabab bilan, ertasiga o'sha sabab bilan o'lmasa, indiniga yana o'zga bir sabab bilan... Aytmoqchimizki, o'l'im - muqarrar. Hammamiz mazkur fikrda yakdilmiz. Xuddi shunday, u yoki bu odamning bir kun kelib ishdan ketishi yoki ishlab turib omonat jonni Yaratganga topshirishi ham tabiiy hol. Bunga shubha yo'q... Tavba, tavba... tag'in o'tlab ketdik, chog'i...

3

Shunday qilib u ishdan ketdi... Ishxonadan keng va katta ko'chaga chiqarkan, o'zini g'arib, aftodahol sezdi. Uyiga bormasdan qarovsiz itdek shahar kezdi. Shunda u o'zini haqiqatan ham keraksiz va tashlandiq his qildi. Ulkan ko'chalar bo'ylab qad ko'targan osmono'par beton uylar xuddi unga qarab bostirib kelayotgandek dahshatli tuyuldi. Ilgari hech bularni payqamagan ekan. Axir har kuni shu uylar oldidan o'tar edi-ku, nega faqat endigina ular begonadek, shafqatsizdek tuyulayapti. Qani avvalgi munosabat, qayoqqa ketdi, nega ketdi?!

Uyiga esa uning aslo kirgisi kelmayotgandi. Yuragi dov bermayotgandi, to'g'risi. Axir, o'g'li va qizining biri chet elda, boshqasi qo'shni shaharda yashashadi. Ular oila qurib, o'zidan tinib-tinchib ketishganiga ko'p bo'lgan. Xotini hayotligi paytda ham yilda bir kelishsa kelishardi, bo'lmasa telefon bilanoq qarindoshchilik burchidan osongina qutilib qo'ya qolishardi. Uzoq yili ayoli qazo qildi. Shundan beri yolg'iz edi. Biroq u o'z yolg'izligini mana bugun ilk marta his qilib turibdi. Ilk marta duch keldi uning kiyimsiz qolgan jo'jabirdek joni ayovsiz tanholik shamoliga... Holbuki, anchadan beri so'qqabosh va qarovsiz edi. Biroq bugun... Bugun boshlanganga o'xshaydi uning chinakam kimsasizligi...

4

Keza-keza, turtina-turtina horib-charchab, nihoyat, u o'z uyi ostonasiga kelib qoldi. Yuragini vahm bosdi. Biroq na chora, uning kissasidan kalit olib, eshikni ochishdan o'zga yo'li bormidiki, tag'in ikkilansa... Yo'q-da... Ichkari kirdi. Butun dunyosini qorong'ilik chulg'ab keldi shoshib chiroqni yoqdi. Keyin boshqa xonalarnikini ham birin-sirin yoqib chiqdi. Hatto, hojat va cho'milish xonasini ham charog'on qilib qo'ydi... Allamahalgacha yotmadi, o'ylanib-siqilib o'tirdi, yurdi, ustma-ust sigaret chekdi. Ismsiz alamning avj pallasida esa ko'zlariga yosh ham chiqdi: "Endi nima bo'ladi? Qandoq yashayman?" degan g'oyat xavotirli savol miyasini ayovsiz cho'qirdi...

Nihoyat, tongga yaqin charchoqdan ko'zi ilindi... Qancha uxlaganini bilmaydi. Bir mahal qulog'iga qushlarning shodon chug'ur-chug'uri kirdi, shu hamono yuziga tushib turgan quyoshning yoqimli taftini tuydi. Ha, ajib bir farog'at uni uyg'otgandi. To'nini yelkasiga tashlab, asta tashqari yurdi. Mo'v'ijazgina hovlida qad ko'targan bir juft o'rik qiyg'och gullagan tinimsiz sayrab turgan qushlar ham, u guldan bu gulga uchib-qo'nib g'o'ng'illashini boshlagan asalarilar ham unda edi. Atrofdan ona-zaminning, ko'klamning, ulug'vor kuch hayotning bo'yi shundoq ufurib yotardi. Vo'ajab... Nahotki, u oldin bularni ko'rmagan bo'lsa?.. Axir u qariyb qirq yildan beri shu hovlida yashaydi, anov daraxtlarga ham kamida shuncha bersa bo'ladi, lekin u nega bularning birontasini payqamagan bugungacha?..

Chamasi, u bir zamonlar bunga ko'p bo'lgan bolalik chog'lari edi u paytlar hammasini ko'rar va his qilardi. Ertalab uni yo quyosh alangasi yoki bo'lmasa mana shunaqa juvuruq qushlarning bir-biriga gal bermay sayrashlari uyg'otardi eslaydi. Keyin... Keyin u faqat ishxonaning, kundalik va yillik rejalar tashvishi bilan ko'z ochib yumishga odatlangandi. Bugun esa ular qayoqqadir chekinganga o'xshaydi: uning qarib qolgan badaniga tag'in quyoshning tafti yoqayapti, tag'in uning yarim bitib qolgan quloqlari qushlar qo'shig'ini eshitib rohatlanayapti.

Kechgacha u shu yerdan quyosh nurlariga cho'milayotgan daraxt gullarining tagidan ketolmadi, sayroqi qushlarni tark etolmadi. Turtinib-surtinib bo'lsa-da, rahmatli ayolidan keyin qarovsiz qolgan hovlini supurib-sidirdi, yer chopdi, gullarni yovvoyi o'tlardan tozaladi, ularga suv quydi... Nihoyat shom tushdi. U ham horib-charchadi. Ketmonni bir chetga qo'yib, muslukda yuz-qo'lini yuvdi, yelkasiga sochiqni tashlagancha kelib supaga cho'kdi. Keksa nigohlarini endigina nish urib turgan-daraxtu gullar, o'tu o'lanlar o'sgan kaftdekkina yer maydoniga tikdi. Uzoq vaqt shunday o'tirib qoldi. Shunda kimdir unga "Sen yolg'iz emassan!.." deyayotgandek bo'ldi... Bir seskandi-da, qo'zg'alib yurdi. Dimog'iga suv sepilgan tuproqning bahor aralash hidi urildi. Ko'ngli bir ko'tarilib tushdi. Lekin o'zini tutdi. Daraxtga yaqinlashib, unga xuddi odamga qaragandek qaradi. Birdan botinida nimadir ko'chdi... Ko'chdi-yu, o'zini daraxtga tashlab, uni mahkam quchganicha avvaliga unsiz, keyin negadir piqillab yig'lab yubordi. Uzoq, juda uzoq vaqtdan beri ko'zlaridan bir tomchi yosh chiqmagan bu qariya endi yelkalari silkinib-silkinib, ichlari ag'darilib-ag'darilib yig'lar, yig'lagan sari butun umr yig'ilgan qatlam-qatlam sitamlari ko'chib chiqayotgandek bo'lardi...

U o'ziga hamroh va suyanchiqdek tuyulgan daraxt gavdasidan qo'llarini olganda, ko'ngli charog'on edi. Holbuki, atrof tunning siyohiga cho'milgandi, biroq zulmat yo'q edi bu kechada...

Bu ora vaqt ilgarilab ketgandi. Asta yurib uyga kirdi, qorni ochqaganini his qilsa ham charchoqdan ko'zlari yumilib borayotgandi.

This is not registered version of TotalDocConverter

Zo'rga ko'zninga yerni o'zining o'ziga qasmani. Uyquning to'riga g'arq bo'layotgan shuuri endi xonalar chiroqlarini yoqib qo'yilishiga ehtiyoj sezmasdi...